

Shahrisabz tumanining ekoturistik ob'yektlari va ularni rivojlantirish masalalari

O'zMU, Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti

g.f.n. dots. Shamuratova N.T.

O'zMU, Magistr., Chorshanbiyeva Mahliyo Nuraliyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shahrisabz tumanining ekoturistik salohiyati va hududda joylashgan tabiiy ob'yekrlar tahlil qilinadi. Hisor tog'lari, Oqsuv va Qizilsuv daralari kabi noyob ekoturistik hududlarning imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Shahrisabz tumani, ekoturizm, Hisor tog'lari, Oqsuv darasi, Qizilsuv darasi, ekoturistik ob'yektlar, tabiiy resurslar, ekologik infratuzilma, mahalliy hamjamiyat, ekoturizmni rivojlantirish.

Аннотация: В данной статье анализируется экологический потенциал Шахрисабзского района и расположенные на его территории природные объекты. Рассматриваются такие уникальные экотуристические зоны, как Гиссарские горы, ущелья Аксу и Кзылсу.

Ключевые слова: Шахрисабзский район, экологический туризм, Гиссарские горы, ущелье Аксу, ущелье Кзылсу, экотуристические объекты, природные ресурсы, экологическая инфраструктура, местное сообщество, развитие экотуризма.

Annotation: This article analizes the ecotourism potential of the Shahrisabz district and its natural sites. Unique ecotourism areas such as the Hisor Mountains, Aksu, and Qizilsu gorges are reviewed.

Keywords: Shahrisabz district, ecotourism, Hisor Mountains, Aksu gorge, Qizilsu gorge, ecotourism sites, natural resources, ecological infrastructure, local community, ecotourism development.


**Research Science and
Innovation House**

Eng avvalo ekologik turizm va uning boshqa turdag'i turizm bilan farqi nimada ekanligini ajratib olish lozim bo'ladi.

“**Turizm**” termini birinchi bo'lib, 1830-yilda V.Jekmo tomonidan fanga olib kirilgan. Fransuz tilida “tour”- “aylana, aylanma harakat” va “travel”-“sayr-sayohat”. Shuningdek, “tourisme - sayohat qilish, dam olish” bo'lib, shu bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki siyosiy-ma'muriy vazifalarni bajarish degan ma'noni anglatadi. [2; 404-b]

Ma'lumki, turizmning juda ko'p shakllari va turlari mavjud. Sohalar bo'yicha turizm 6 ta turga, jumladan, **agroturizm**, **avtoturizm**, **veloturizm**, **suv turizmi**, **sport turizmi**, **ekoturizm** kabi turlarga bo'linadi [3].

Ekoturizm – shaxslarning dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashish, ma'rifiy-ma'naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish kabi maqsadda hamda ekologik vazifalarni bajarish uchun doimiy yashash joylaridan chiqib, atrof tabiatga qiladigan sayohatlari, atrof-muhitni o'rganish, uni muhofaza qilish, tabiatga nisbatan ma'suliyatli munosabatda bo'lish va shuning bilan bir qatorda maroqli hordiq chiqarish imkoniyatini yaratadi.



Shahrisabz tumani, O'zbekistonning qadimiy va tarixiy hududlaridan biri bo'lib, nafaqat madaniy va tarixiy yodgorliklari, balki tabiiy boyliklari bilan ham diqqatga sazovordir. Tumanning tabiiy landshafti, noyob iqlim sharoiti, o'simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi uni ekoturizm rivoji uchun qulay hududga aylantiradi. Ushbu maqolada Shahrisabz tumanidagi ekoturistik ob'yekrlar va ularni rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi.

Shahrisabz tumanining ekoturistik salohiyati.

Shahrisabz tumani O'zbekistonning Qashqadaryo viloyatida [1] joylashgan bo'lib, tog' va tog' oldi hududlari bilan ajralib turadi. Ushbu hududda quyidagi asosiy ekoturistik ob'yektlar mavjud:

1. Hisor tog'lari.

Hisor tog' tizmalari Shahrisabzning eng go'zal tabiiy hududlaridan biri bo'lib, ulkan turistik salohiyatga ega. Bu yerda piyoda yurish (trekking), tog' velosporti va qushlarni kuzatish kabi faoliyatlar uchun qulay mgoniyatlar mavjud.



1-rasm. Hisor davlat tog' archa qo'rrixonasi

2. Oqsuv va Qizilsuv daralari.

Bu hududda o'zining tabiiy go'zalligi, sharsharalari va noyob flora-faunasi bilan sayyoohlarni jalb etadi. Ayniqsa, yoz oylarida bu joylar dam olish maskani sifatida xizmat qiladi.

3. Tuproq va o'simliklarning xilma-xilligi.

Tumanda ekologik jihatdan boy o'rmonzorlar, dorivor o'simliklar va noyob hayvonot dunyosi mavjud. Bu ekoturizm doirasida ilmiy ekspeditsiyalar va biologik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari.

Shahrisabz tumaning ekoturistik imkoniyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Infratuzilmani yaxshilash.

Turistlarni qabul qilish uchun maxsus dam olish maskanlari, ekologik mehmonxonalar va yo'l ko'rsatkichlar tizimini tizimini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ekologik toza transport vositalarini joriy qilish muhim.

2. Mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish.

Ekoturizm loyihibariga mahalliy aholini jalb qilish orqali yangi ish o'rnlari yaratish va hudud iqtisodiyotini rivojlantirish mumkin. Mahalliy aholi tomonidan qo'l mehnati bilan tayyorlanadigan suvenirlar va mahsulotlar turistlar uchun qiziqarli bo'lishi mumkin.

3. Madaniy va ekologik ma'rifat ishlari.

Ekoturizmni rivojlantirish uchun ekologik bilimlarni targ'ib qilish, tabiiy resurslarni asrash va ekologik madaniyatni oshirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish lozim.

4. Reklama va marketing strategiyalari.

Shahrisabz tumanining ekoturistik ob'yektlarini xalqaro darajada targ'ib qilish uchun ijtimoiy tarmoqlar, turistik ko'rgazmalar va media resurslaridan foydalananish lozim.

Shahrisabz tumani o'zining tabiiy va tarixiy boyliklari bilan nafaqat mahalliy, balki xalqaro mquyosdagi sayyoohlar uchun ham jozibador huddadir. [4] Ekoturizmni rivojlantirish orqali tumanning iqtisodiy va iltimoiy salohiyatini oshirish, ekologik madaniyatni yuksaltirish va tabiiy boyliklarni asrash imkoniyati mavjud. Shu sabali, mahalliy hokimiyat va tadbirkorlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari ko'riliishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 08.03 2019 yil 198 sonli Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to’g’risida Vazirlar Mahkamasi qarori.
2. Kotlyarov E.A. Рекрационная география. М.: -1978.
3. Shamuradova Sh.G’. Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik asoslari. Dis.... G.f.f.d. (PhD) – Toshkent.2020. – 128 b.
4. Shamuratova N.T. O’zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari. //G.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya Toshkent 2011



**Research Science and
Innovation House**